

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasiga Mo'g'uliston Fanlar akademiyasi delegatsiyasi tashrifi

2018-yil 4-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasiga Mo'g'uliston Fanlar akademiyasi prezidenti janob Regdel Dugar boshchiligidagi delegatsiyasi tashrif buyurdi. Mehmonni O'zR FA prezidenti Bexzod Yuldashev, vitse-prezidentlar kutib oldi hamda ikki davlat o'rtasida ilm-fan sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish hamda kelgusidagi rejalar muhokama qilindi.



Shundan so'ng delegatsiya FA Genomika va bioinformatika markazi hamda O'simlik moddalari institutida ham bo'lishib, u yerdagi ilmiy-tadqiqot ishlari, laboratoriyalar, erishilayotgan yutuqlar bilan yaqindan tanishdi.



Mo'g'iliston Fanlar akademiyasi prezidenti janob Regdel Dugar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik o'rnatish niyatida ekanligini hamda bo'lib o'tgan samimiy uchrashuvlar uchun o'z tashakkurini bildirdi.